

MA'NAVIY-MA'RIFIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA FALSAFIY TAHLIL METODINING ROLI

Abdullayev Akmal Nasriddinovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

E-mail: abdullayevakmal640@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-8832-0258>

Annotasiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni takomillashtirish jarayonida falsafiy tahlil metodining o'ziga xos ahamiyati yoritiladi. Jamiyatda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ongini shakllantirish har bir ta'lim muassasasining ustuvor vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, talaba yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish ularning kelajakda jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, taraqqiyot jarayonlarida faol qatnashadigan shaxs sifatida kamol topishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Zero, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya bir vaqtning o'zida intellektual, axloqiy va estetik kamolotni qamrab oladi. Falsafiy tahlil metodi talabalarda butun olam haqida teran tushuncha hosil qilishga ko'maklashadi, chunki u bilim yo'nalishlari o'rtasida uzviy bog'lanish o'rnatish, voqelikni tanqidiy ko'rib chiqish, ma'naviy qadriyatlarni ilmiy asosda muhokama qilish imkonini beradi. Mazkur metod inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti va axloq normalari bo'yicha chuqur fikr yuritish asosida fikrlashni sayqallash, qarashlar uyg'unligi va daxldorlik hissini paydo qiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv talabalarni obyektiv dalillar asosida xulosa chiqarishga, turli masalalarda xolis pozitsiyani egallashga rag'batlantiradi. Natijada, talabalar shaxsiy ma'naviy ongini boyitish bilan bir qatorda jamiyatda yuqori ma'naviy muhit shakllanishiga hissa qo'shadilar.

Kalit so'z: falsafiy tahlil, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya, talaba yoshlar, tanqidiy fikrlash, intellektual salohiyat, axloqiy qadriyatlar, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuv, tarbiya metodlari, mustaqil fikrlash, falsafa fanining roli, ta'lim samaradorligi.

РОЛЬ МЕТОДА ФИЛОСОФСКОГО АНАЛИЗА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Абдуллаев Акмаль Насриддинович

Доцент Наманганского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье освещается специфическое значение метода философского анализа в процессе совершенствования духовно-просветительских компетенций. Повышение духовности молодежи в обществе, формирование у нее сознания на основе общечеловеческих ценностей-одна из приоритетных задач каждого учебного заведения. В связи с этим развитие духовно-просветительских компетенций у учащейся молодежи создает важные условия для ее дальнейшего развития в обществе

как самостоятельной мыслящей личности, активно участвующей в процессах развития. Ведь духовно-воспитательная компетентность предполагает одновременно интеллектуальное, нравственное и эстетическое совершенство. Метод философского анализа способствует формированию у учащихся глубокого понимания всего мироздания, так как позволяет установить неразрывные связи между направлениями познания, критически рассмотреть действительность, обсудить духовные ценности на научной основе. Данный метод, основанный на глубоком размышлении о человеческой жизни, развитии общества и нормах морали, позволяет отшлифовать мышление, создать гармонию взглядов и чувство сопричастности. Вместе с тем, данный подход побуждает студентов делать выводы на основе объективных фактов, занимать объективную позицию по различным вопросам. В результате учащиеся не только обогащают свое личное духовное сознание, но и способствуют формированию высокой духовной атмосферы в обществе.

Ключевое слово: философский анализ, духовно-образовательная компетентность, студенческая молодежь, критическое мышление, интеллектуальный потенциал, нравственные ценности, образовательный процесс, инновационный подход, методы воспитания, самостоятельное мышление, роль философской науки, эффективность воспитания.

THE ROLE OF THE METHOD OF PHILOSOPHICAL ANALYSIS IN IMPROVING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL COMPETENCIES

Abdullayev Akmal Nasriddinovich

Associate Professor of Namangan State Pedagogical Institute

Annotation. *This article will highlight the specific importance of the method of philosophical analysis in the process of improving spiritual and educational competencies. Raising youth spirituality in society, the formation of consciousness in them based on universal values is one of the priorities of each educational institution. In this regard, the development of spiritual and educational competencies in student youth creates important conditions for their maturation in the future as a person who thinks independently in society, actively participates in the processes of development. After all, spiritual and educational competence simultaneously covers intellectual, moral and aesthetic maturity. The method of philosophical analysis promotes the formation of a thoughtful understanding of the entire universe in students, since it allows you to establish an inextricable connection between the directions of knowledge, critically consider reality, discuss spiritual values on a scientific basis. This method, based on a deep reflection on human life, the development of society and the norms of morality, gives rise to a feeling of bleaching thought, harmony of views and inviolability. At the same time, this approach encourages students to draw conclusions based on objective evidence, to take an impartial position on various issues. As a result, students contribute to the formation of a higher spiritual environment in society, in addition to enriching their personal spiritual consciousness.*

Keyword: *philosophical analysis, spiritual and educational competence, student youth, critical thinking, intellectual potential, moral values, educational process, innovative approach, educational methods, independent thinking, the role of philosophy, educational effectiveness.*

KIRISH

Zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayoni faqatgina bilim berish bilan cheklanmaydi, balki talaba yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya (*competentia – lotincha "xabardorlik, asosni tushunish, malakali bo'lish"*) muhim mezon sifatida qaraladi. Shu bois, talaba-yoshlarda faqat uzluksiz tahsil olish malakasi emas, balki ularni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash ham zamon talabi hisoblanadi. Bunda yoshlar ongida umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, xolis fikrlash, milliy o'zlikni anglash, axloqiy jihatdan barkamol bo'lish kabi bir qator sifatlar mujassamlashishi lozim. Mana shunday sifatlarni shakllantirishda, xususan, falsafa fanining o'ziga xos o'rni bor. Falsafiy tahlil metodi talaba yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasini takomillashtirishda eng muhim uslublardan biri bo'lib, ularda tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash ko'nikmalari, axloqiy-estetik qadriyatlarga yondashuvlar hamda keng dunyoqarashni uyg'un ravishda o'sib borishiga xizmat qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari, falsafiy tahlil metodining ta'riflari, uslubiy jihatlari va pedagogik tajribada ularni qo'llash mexanizmlari keng sharhlanadi. Shuningdek, o'tmishdagi va zamonaviy olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar tahlili orqali, bugungi kun talabi sifatida ma'naviy-ma'rifiy yo'naltirilgan ta'limda falsafiy yondashuvni integratsiyalash samaralari ko'rsatiladi. Zero, falsafiy tahlil metodi nafaqat nazariy tushunchalarni anglash, balki amalda yoshlarning intellektual va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiya topishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya tushunchasi pedagogikada keng ko'lamda ko'rib chiqiladi. Bu atama asosan yoshlar ongining ma'naviy shakllanishi, axloqiy qarashlari, jamiyatdagi munosabatlarga puxta yondashuvi, tafakkur mahsulini

haqqoniy baxolay olishi singari bir qator tushunchalarni o'zida mujassam etadi. Mazkur kompetensiya ta'lim jarayonida intellektual rivojlanish bilan bir qatorda, axloq, ma'naviyat, dunyoqarash va sotsial munosabatlar sifatlarini birlashtirib, talaba shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda "kompetensiya" atamasi bugungi kun ta'limida bilim, malakalar, ko'nikmalar hamda munosabatlar birligini ifoda etadi. Jumladan, V.G. Afanasev "kompetensiya – shaxsda mavjud bilim, ko'nikma va malaka majmuasi bo'lib, u muayyan faoliyat samaradorligini ta'minlaydi"[1], deya ta'kidlaydi. Shu jihatdan pedagogik adabiyotlarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya termin sifatida: shaxsda axloqiy-estetik, intellektual, ma'rifatga oid tushunchalarni birlashtirgan holda, ta'lim jarayonida uning eng muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiyani yuksaltirishda milliy-madaniy qadriyatlar, umumbashariy an'analar, axloqiy mezonlar kompleks tahlil etilishi muhim. Xususan, A.J. Saidov ta'kidlashicha, "ma'naviyat – bu shaxs tarbiyasidagi yuksaklikka erishuv jarayoni bo'lib, ma'rifiy yondashuv esa bu jarayonni ilmiy negizda yo'lga qo'yadi"[2]. Demak, ma'naviyat va ma'rifatni uyg'un ravishda o'rganish, talaba yoshlarda samarali tarbiyalash maqsadida pedagogik jarayonda komplementar(*bir-birini to'ldiruvchi*) vazifa bajaradi. Bunda falsafiy metodlar, xususan, falsafiy tahlil muhim o'rin tutadi xamda u ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar mezonlarini chuqurroq anglash va baxolash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Falsafiy tahlil metodi (*grekcha "philosophia" – donolikni sevish, arabcha "falsafa" – borliqni chuqur anglash") ta'lim jarayonida reflektiv, tanqidiy va tizimli yondashuvni ifoda etadi. Bu metod yoshlar ongida mavjud bilimlar, qadriyatlar, g'oyalar manbasini aniqlash va ularni chuqurroq tahlil etish orqali shakllanishiga ko'maklashadi. Taniqli olim K. Beknazarov "falsafa – bu inson tafakkurining eng yuqori pog'onasi bo'lib, u bilim sohalari o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Falsafiy tahlil – bu nafaqat nazariy anglash, balki jamiyat taraqqiyotida ilmiy yondashuvni shakllantirish metodi hamdir"[3]. Demak, falsafiy tahlil metodi yoshlar ongida uchinchi shaxs g'oyalarini ko'r-ko'rona o'zlashtirmasdan, aksincha, har qanday bilim manbaini teran anglab, tushunib yetishdek muhim vazifani bajaradi. Pedagogik

jihatdan olib qaranganda, falsafiy tahlil metodining qulayligi – u interfaol usullar bilan uyg'un qo'llanganda, talabalarda ma'naviy-ma'rifiy qoidalarni anglash jarayonida tanqidiy qarashlar va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, falsafiy muhokama, debatlar, keys-stadi uslublari orqali talabalar har turli mavzuda o'z qarashlarini bildirib, bir-birlari bilan fikr almashadilar. Shu tariqa ma'naviy mavzular yuzasidan doimiy fikrlash, bahslar olib borish, manbalarni chuqur o'rganish orqali yoshlarda ma'rifat sari intilish kuchayadi.

Falsafiy tahlil metodi, shuningdek, jahon falsafasi merosidan foydalanish orqali talabalar dunyoqarashining kengayishiga sabab bo'ladi. Jumladan, Aristotel, Platon, Al-Farobiy, Ibn Sino, I. Kant, G. Hegel, A. Navoiy kabi allomalarning ma'naviyat, axloq, jamiyat taraqqiyoti haqidagi fikrlarini seminar mashg'ulotlari davomida tahlil qilish talabalar ongida tizimli anglash (*systematic understanding*), kuchli mantiqiy fikr yuritish (*logical reasoning*), insoniylik qadriyatlariga hayotiy yondashuvni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, falsafiy tahlil talabalarda o'zlari istiqomat qilayotgan jamiyat haqida aniq bir pozitsiya ishlab chiqishlariga ko'maklashadi. Ya'ni, yoshlar faqat nazariy bilibgina qolmay, balki voqelikka tanqidiy yondashuv, holatlarni tahlil etish, qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Pedagogik adabiyotda bunday ko'nikmalar "21-asr kompetensiyalari"[4] sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Ana shunday tanqidiy fikrlash, refleksiv yondashuv, qaror qabul qilishda mustaqillik ma'lum ma'noda aynan falsafiy tahlil metodiga tayanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy, estetik, g'oyaviy jihatdan rivojlantirishi bilan birga, jamiyatda munosib burchini ado etish, qarorlar qabul qilish va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish kabi ko'nikmalarni ham talab qiladi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirishda falsafiy tahlil metodi asosiy vosita sifatida istifoda etilishi mumkin.

1. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. Tanqidiy tafakkur – bu vaziyat yoki masala yuzasidan samarali fikr yuritish, dalillar asosida xulosa chiqarish, turli nuqtai nazarlarini solishtirish orqali yaxlit tasavvur hosil qilishdir. Falsafiy tahlil ushbu tanqidiy tafakkurni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Chunki falsafa tarixida ko'plab bahslar, munozaralar, dialektik yondashuvlar haqida ko'plab

ma'lumotlar mavjud. Masalan, Gegel dialektikasi yoki Ibn Sinoning ilm-fan rivoji uchun "shubha qil, tekshir, tanqid qilib ko'r"[5] degan ilmiy yondashuvi bugungi kun talabalarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda katta resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2. Aksariyat qadriyatlarni anglash va baholash. Falsafiy tahlil metodi orqali jamiyatda mavjud ma'naviy qadriyatlar tanqidiy ko'z bilan qayta ko'rib chiqiladi va yaxlit bir tarzda baholanadi. Masalan, "inson omili" tushunchasi, "axloqiy javobgarlik" yoki "insoniylik prinsiplari" nima ekanini falsafa merosi asosida tushunib yetish, ularni joriy sharoit bilan solishtirib ko'rish, talabalarda shaxsiy axloqiy pozitsiyani ta'minlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya ning negizi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ma'naviy rivojlanish – bu hayotni axloqiy mezonlar asosida idrok qilish, turli vaziyatlarga nisbatan yondashuvlar tizimini egallash demakdir. Falsafiy tahlil esa ushbu mezonlarni puxta anglash va aniq bayon qila olishga yordam beradi.

3. Integrativ yondashuvni shakllantirish. Falsafiy tahlil metodi bir fan yoki bir yo'nalish bilan cheklanib qolmaydi, aksincha, barcha fanlar orasida uzviy bog'lanishni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Jumladan, tarix, adabiyot, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi sohalar bilan uzviy integratsiya hamda ularda mavjud g'oyalar, tushuncha va nazariyalarni mos ravishda solishtirish, sintez qilish talaba ongida yaxlit bir jahonqarashni barpo etadi. Demak, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani shakllantirishda talaba kerakli nazariy bilimlar, axloqiy qadriyatlar, madaniy an'analar va ilmiy yondashuvlarini yaxlit bir tizim sifatida ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Ilmiy asoslangan xulosa chiqarish malakasi. Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya bir vaqtning o'zida shaxsiy tafakkurni ilmiy asosda qurishni talab qiladi. Falsafiy tahlil metodi esa ilmiy metodologiyani tushunib yetish, dalillar asosida bahs yuritish, manbalar bilan muntazam ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, falsafiy qarashlarda tajriba (empirical) va nazariy (theoretical) dalillarning uyg'unligi uqtiriladi. Olim I. Kant ma'rifiy bilimlar rivoji uchun turli bilimlar o'rtasida uzluksiz aloqa bo'lishi lozimligini uqtirgan edi [6].

Demak, turli fanlar, madaniyatlar, manbalar bilan tanishish va ularni inobatga olgan holda ma'naviy xulosa chiqarish, talaba ongida xolis pozitsiya shakllantiradi.

Falsafiy tahlil metodida interaktiv shakllardan biri – debatlar (bahs) va dialoglardir. Bunda bir guruh talabalar ma'lum bir mavzuda tarafdor va qarshi guruh sifatida fikr bildiradi, boshqalar esa kuzatuvchi yoki baholovchi sifatida qatnashadi. Masalan, "O'qituvchida yoshlar kamolotidagi eng muhim sifatlar nimalardan iborat?" kabi mavzuda talabalar ikki guruhga bo'lingan holda, biri axloqiy yuksaklikni birinchi o'ringa qo'yadi, ikkinchisi esa kasbiy mahoratni ustunlik sifatida ko'radi. Mazkur jarayonda ular "ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya"ni falsafiy tushunchalarga tayangan holda muhokama qiladi. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash va ilmiy dalillar keltirish ko'nikmalari rivojlanadi. Debatlar orqali talabalarda "argumentatsiya" (*dalillar keltirish, asoslash*), "kontrargumentatsiya" (*qarama-qarshi dalillar orqali rad etish*) mexanizmi ishga tushadi. Natijada ular ham axborotni o'zlashtirish, ham uni sharhlash malakasiga ega bo'lib, shaxsiy pozitsiyasini ilmiy asosda ifoda etishni o'rganadi. Bu jarayonda falsafiy tahlil metodi har bir da'vo yoki fikrni ilmiy-mantiqiy asoslash lozimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogikada keys-stadi yuksak samara beradigan uslublardan biri sanaladi. Keys-stadi – bu aniq bir voqea yoki muammoni chuqur tahlil qilish, unda qatnashuvchilarni rolga kirish, turli pozitsiyalarda bahs yuritish orqali ilmiy xulosa chiqarish jarayonidir. Agar keys ma'naviy-ma'rifiy masalalar bilan bog'liq bo'lsa, unda falsafiy tahlil metodini qo'llash eng maqbul vosita hisoblanadi. Masalan, talaba bir jamoada manfaatlar to'qnashuvi yuz bergan vaziyatni keys sifatida olsak, "Shaxsiy manfaatlar jamiyat manfaatlaridan ustun bo'lishi mumkinmi?", "Aniq bir masalada maqsadlararo ziddiyatda axloqiy yondashuv qanday bo'lishi kerak?" singari savollar orqali talabalar muammoni turli rakurslardan ko'rib chiqishi mumkin. Ular manbalarga tayanadi, tarixiy misollar keltiradi, diniy-axloqiy yoki dunyaviy qarashlarni tahlil qiladi, qolaversa, ishonchli faktlar asosida xulosa chiqaradilar. Keys-stadining maqsadi – talabalarni voqelikni chuqur tushunishga undovchi falsafiy tahlil ko'nikmalari bilan qurollantirishdir.

Falsafiy tahlil metodi boshqa fanlar bilan uyg'un holda loyihalar uyushtirishda ham samara beradi. Masalan, tarix fanidan "Tarixiy shaxslarning ma'naviy

qadriyatlarni shakllantirishdagi roli” mavzuida bir guruh talaba adabiyotlardagi ma’lumotlarni, tarixiy yodgorliklarni, millat ma’naviyatiga oid ma’lumotlarni yig’ib, ular asosida ilmiy-pedagogik loyiha tayyorlashi mumkin. Bunda falsafiy tahlil metodi orqali tarixiy dalillar tanqidiy ko’rib chiqiladi, shaxslar faoliyati keng ko’lamda baholanadi, ulardan xulosa sifatida ilmiy-ma’rifiy sabaqlar olinadi. Bu jarayonda talabalar ma’naviyat va ma’rifat tushunchalarini faqat nazariy emas, balki tarixiy voqelik bilan uyg’un holda anglab yetadilar.

Talabalarda falsafiy tahlil metodini rivojlantirish uchun munozaralar tashkil qilish bilan birga, esse yozish tadbirlari ham amaliy ahamiyatga ega. Mazkur uslub orqali talaba bir mavzuda o’zining shaxsiy nuqtai nazarini tartibli ravishda bayon etadi. Masalan, “Ma’naviyatni shakllantiruvchi asosiy omillar nima?” degan savol asosida esse yozishda talaba falsafiy adabiyotlar, ilmiy manbalar, tarixiy ma’lumotlarga murojaat qiladi. Bu jarayonda u tanqidiy fikrlaydi, dalillar keltiradi, umuman, shaxsiy xulosalarini argumentatsiya bilan boyitadi. Shu tariqa falsafiy tahlil usuli talaba yozgan esse orqali uning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi rostdan ham kuchli yoki ko’proq takmillashtirish lozimligi aniq bo’ladi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotda ma’naviy-ma’rifiy kompetensiyani rivojlantirishda falsafiy tahlil metodiga bo’lgan e’tibor ortib bormoqda. Jumladan, nemis olimi Yu. Xabermas ham “kommunikativ aql” [7] nazariyasini ilgari surar ekan, ma’naviy muloqot va bahslar orqali insonlar ongida axloqiy taraqqiyot kechishi mumkinligi haqida fikr bildiradi. Bu esa biz so’z yuritayotgan falsafiy tahlil metodining kommunikatsiya (muomala) orqali amalga oshishi borasida ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi. Turk olimi F. Gellen “Ta’limda ma’naviy tarbiya – bu shaxsiyatni shaffoflashtirish jarayonidir, bu jarayonda falsafiy yondashuv muhim rol o’ynaydi”[8], deya ta’kidlaydi. Unga ko’ra, talaba yoshlarning axloqiy, ma’naviy, etik norma va qoidalarni chuqur idrok etishlariga, pedagog ularda falsafiy tahlil (*analiz*) orqali e’tiqod, qadriyatlar va shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni uyg’un rivojlantirishi lozim.

M.D. Ilhomov esa “zamonaviy ta’limda jahon falsafasi tarixidagi bahslar, tushunchalar va metodlarning qayta ko’rib chiqilishi, talabalarda mustaqil fikrlashni yo’lga qo’yadi”[9], deya ta’kidlaydi. Unga ko’ra, talaba, masalan, Platon

yoki Ibn Sino fikrlarini o'qib, ularga ko'r-ko'rona ishonmasdan, balki "bu g'oyalar bugungi zamonda qanday aks etadi, bu fikrni qabul qilish yoki tanqid qilish uchun qanday dalillar mavjud?" deya analiz qilishi lozim. Shu tarzida yondashuv orqali ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyang negizi yangicha saviyada yuksaladi.

Ta'lim tizimida amalga oshiriladigan turli pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, talaba yoshlar falsafiy tahlil asosida bilim egallash jarayoniga jalb etilganda, ularda yuqori darajada motivatsiya, tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini ilmiy baholash ko'nikmalari shakllanadi. Masalan, Toshkentdagi bir qator oliy ta'lim muassasalarida (Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent Islom universiteti va boshq.) "Falsafa" fanini o'qitishda interaktiv usullar, debatlar, munozaralar orqali ma'naviy-axloqiy mavzularni muhokama qilish an'anaga aylanib bormoqda.

Ushbu tajribalar natijasida talabalarda:

1. Tanqidiy fikrlash: turli ommaviy axborot vositalaridagi, kitoblardagi yoki internetdagi manbalarni ko'r-ko'rona qabul qilmasdan, ularni tahlil qilish, dalillar asosida o'z nuqtai nazarini bildirish ko'nikmasi shakllanadi.

2. Shaxsiy hayotiy pozitsiyani rivojlantirish: ma'naviy-ma'rifiy mavzularda munozaralar orqali talaba o'z axloqiy tamoyillarini shakllantiradi. Masalan, "Vatanga xizmat qilish" yoki "Insoniylik qadriyatlarini" mavzularida talabalarni baxslashtirish natijasida ular o'zlarini hayotiy maqsadlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Integrativ faoliyat: falsafiy tahlil metodi tarix, adabiyot, psixologiya, ta'lim metodikasi bilan uyg'un ravishda qo'llanganda, talabalarda bir mavzuda bir necha fan nuqtai nazaridan yondashuvlar yuzaga keladi. Shu tariqa, pedagogik jarayon samarasi ortadi.

4. Ilmiy izlanish ko'nikmasini mustahkamlanishi: talabalar, falsafa tarixini, turli ilmiy nazariyalarni o'rganib, mazkur g'oyalarni o'z ilmiy ishlarida, esse yoki maqolalarida tanqidiy tahlil qiladi. Bu esa ularda ilmiy qobiliyatni rivojlantirishi barobarida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini ham chuqurlashtiradi.

XULOSA

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya – bu zamonaviy talaba shaxsiyatini barkamol etishda eng muhim mezonlardan biri bo'lib, u axloqiy, estetik, intellektual qadriyatlar birligini o'z ichiga oladi. Falsafiy tahlil metodi esa bu kompetensiyani takomillashtirishda poydevor vazifasini bajaradi. Chunki falsafiy tahlil tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi, turli bilim sohalari bilan bog'lanishni ta'minlaydi, manbalar bilan ishlash ko'nikmasi orqali ilmiy izlanish samaradorligini oshiradi va eng asosi – talaba shaxsida ma'naviy-ma'rifiy ongni rivojlantiradi.

1. Falsafiy tahlil asoslarini o'qituvchilar o'quv rejasiga kiritish: barcha ta'lim yo'nalishlarida, ayniqsa, gumanitar fanlarda falsafiy tahlil elementlari muntazam o'rganilishi kerak. Bu talabalarda ilmiy, axloqiy, ma'naviy qarashlarni uyg'unlashtiradi.

2. Interaktiv dasturlar yaratish: audiovizual materiallar, multimedia vositalari, onlayn platformada falsafiy munozaralar tashkil qilish orqali yoshlar ongida yangicha tafakkurni shakllantirish mumkin.

3. Tanqidiy fikrlashni motivatsiyalash: eng avvalo, talabalarda mustaqil yondashuv, qobiliyatni rag'batlantirish, xato qilib qo'yishdan cho'chimaslik muhitini yaratish muhim.

4. Manbalar bilan ishlash: alohida kurs yoki seminarlar: talabalarni ilmiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash usullari bilan tanishtirish, ularda tushunmovchilik kelib chiqqanda maslahat berish zarur.

5. Ilmiy-ma'rifiy ekspeditsiyalar, ekskursiyalar tashkil qilish: tarixiy obidalar, muzeylar, kutubxonalarga sayohatlar orqali toliba yoshlar joyida ma'lumotlar bilan tanishib, falsafiy tahlil qilish ko'nikmalarini joriy etishi mumkin.

Ushbu tavsiyalar amaliyotga muntazam joriy etilishi bilan falsafiy tahlil metodining ta'lim jarayonidagi o'rni yanada mustahkamlanadi, talabalarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya yuksaladi. Natijada, zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan intellektual, ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan yoshlar avlodi shakllanadi. Shu tariqa, ta'lim tizimida ilmiylik va axloqiylik uyg'unligi ta'minlanib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi kadrlar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ikromovich, Ergashev Murodbek. "“KREATIV KOMPETENSIYA” VA “IJTIMOIY KOMPETENSIYA” TUSHUNCHALARINING KONTEKSTUAL TAHLILI." Современное образование (Ўзбекистан) 7 (128) (2023): 45-55.
2. Abduvali o'g'li A. J. MA'NAVIYAT BARQARORLIGINING IJTIMOIY AHAMIYATI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 453-457.
3. Fozilovna H. M. FALSAFIY TAFAKKUR TRANSFORMATSIYASINING PEDAGOGIK JARAYONDA QOLLANILISHI //YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 86-89.
4. Boboxonovna B. Y. RAQAMLI KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING EVOLYUTSIYASI: TARIXI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR //PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI. – 2025. – Т. 13. – №. 01. – С. 11-14.
5. Shodiboyev S. SHARQ VA G'ARB MADANIYATIDA INDIVIDUALIZM, O'Z O'ZINI NAMOYON QILISH VA FARZAND TARBIYASI USULLARI QIYOSIY TAHLILI //Nordic_Press. – 2024. – Т. 3. – №. 0003.
6. Кант И. “Критика чистого разума”. – Санкт-Петербург: Питер, 2019, б. 112
7. Azimova Z., Olimjonov O. PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA “KOMMUNIKATIV KO'NIKMA” VA “MULOQOT” ATAMALARINING MAZMUNI //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – Т. 8. – С. 114-116.
8. Göllen F. “Eğitimde Manevi Gelişim Yaklaşımları”. – Ankara: Nobel Yayınları, 2017, s. 45
9. Ilkxomov M.D. “Pedagogika va falsafa uyg'unligida ma'naviy kompetensiya” – Toshkent: Fan, 2020, b. 112